

Samarqand viloyatida turizm va dam olishni rivojlanishi


2024-yil uchun

- I. Kiruvchi va chiquvchi turizm
- II. Turistik firma va tashkilotlarning faoliyati
- III. Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining faoliyati
- IV. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining faoliyati
- V. Individual va boshqa joylashtirish vositalarining faoliyati
- VI. Turizm va dam olishni rivojlanishining ko'rsatkichlariga doir uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Kiruvchi va chiquvchi turizm

Kiruvchi turizm – ko'rilayotgan mamlakat doimiy yashovchisi bolmagan tashrif buyuruvchining kiruvchi sayyohlik safari vaqtida ushbu mamlakat doirasidagi faoliyatini o'z ichiga oladi. U ko'plab mamlakatlar va hududlar uchun muhim daromad manbai hisoblanadi, shuningdek, iqtisodiyot va turizm sohasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Chiquvchi turizm – ko'rilayotgan mamlakat doimiy yashovchisi bolgan tashrif buyuruvchining ushbu mamlakat doirasidan tashqariga chiquvchi yoki ichki sayyohlik safariga doir faoliyatini o'z ichiga oladi.



2024-yilda viloyatga turistik maqsadlarda kelgan xorijiy davlatlar fuqarolarining umumiy safarlari soni **53,2 mingtani** tashkil etgan va 2023-yilning mos davriga nisbatan **20,3 %** ga kamaygan.


Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolarining turistik safarlari soni \(jami\)](#)
[Chet el fuqarolarining turistik safarlari sonini davlatlar kesimida taqsimlanishi](#)
[Chet el fuqarolarining xizmat maqsadida amalga oshirilgan turistik safarlari soni](#)
[Chet el fuqarolarining o'qish maqsadida amalga oshirilgan turistik safarlari soni](#)
[Chet el fuqarolarining bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish maqsadida amalga oshirilgan turistik safarlari soni](#)
[Chet el fuqarolarining qarindoshlarini yo'qlash maqsadida amalga oshirilgan turistik safarlari soni](#)
[Chet el fuqarolarining davolanish maqsadida amalga oshirilgan turistik safarlari soni](#)
[Chet el fuqarolarining tijorat maqsadida amalga oshirilgan turistik safarlari soni](#)
[O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining turistik safarlari soni \(jami\)](#)
[O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining turistik safarlari sonini davlatlar kesimida taqsimlanishi](#)
[O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xizmat safarlari soni](#)
[O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining o'qish maqsadidagi turistik safarlari soni](#)
[O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish maqsadidagi turistik safarlari soni](#)
[O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarindoshlarini yo'qlash maqsadidagi turistik safarlari soni](#)
[O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davolanish maqsadidagi turistik safarlari soni](#)

II. Turistik firma va tashkilotlarning faoliyati

2024-yilda Samarqand viloyatida **144 ta** turistik firma va tashkilotlar faoliyat yuritib, ular **61 679 kishiga** xizmat ko'rsatganlar va jami **71 076 ta** sayyohlik yollanmalarini sotganlar. 2023-yilga nisbatan esa asosiy ko'rsatkichlarning o'sishi kuzatilgan: turistik firma va tashkilotlar soni – **8 taga**, ya'ni **5,6 % ga** oshgan.

Turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
(2024-yil uchun)



Turistik firma va tashkilotlar faoliyati ko'rsatkichlarini
hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024-yil uchun)

	Turistik firma va tashkilotlar soni		Xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni		Sotilgan sayyohlik yollanmalari soni	
	Jami (birlik)	jamiga nisbatan % dagi ulushi	Jami (kishiga)	jamiga nisbatan % dagi ulushi	Jami (birlik)	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Samarqand viloyati	144	100,0	61 679	100,0	71 076	100,0
Samarqand sh.	134	93,0	53 268	86,3	63 785	89,8
Kattaqo'rg'on sh.	-	-	-	-	-	-
<i>Tumanlar:</i>						
Oqdaryo	3	2,0	1 264	2,1	1 776	2,5
Bulung'ur	-	-	-	-	-	-
Jomboy	-	-	-	-	-	-
Ishtixon	-	-	-	-	-	-
Kattaqo'rg'on	-	-	-	-	-	-
Qo'shrabot	3	2,0	327	0,5	50	0,08
Narpay	-	-	-	-	-	-
Nurobod	1	0,8	2	0,003	2	0,003
Payariq	1	0,8	10	0,01	130	0,2
Pastdarg'om	-	-	-	-	-	-
Paxtachi	-	-	-	-	-	-
Samarqand	2	1,4	6 808	11,1	5 333	7,5
Toyloq	-	-	-	-	-	-
Urgut	-	-	-	-	-	-

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan turistik firma va tashkilotlar soni](#)


[Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslari soni](#)

[Turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yollanmalar soni](#)

III. Mehmonxona va shunga oxshash joylashtirish vositalarining faoliyati

2024-yilda viloyat hududida **361 ta** mehmonxona va shunga oxshash joylashtirish vositalarining obyektlari faoliyat yuritib, ularda **6 603 ta** nomer (xona)lar, **13 827 ta** joylar mavjud bolgan va **428 451 kishi** joylashtirilgan. 2023-yilga nisbatan mehmonxona va shunga oxshash joylashtirish vositalarining obyektlari soni **114 taga**, ya'ni **68,4 % ga**, nomer fondi **471 taga** (**47,4 % ga**), joylarlar soni **989 taga** (**7,2 % ga**), joylashtirilgan shaxslar soni esa **82,8 ming kishiga**, ya'ni **80,6 % ga** oshgan.

**Mehmonxona va shunga oxshash joylashtirish vositalari
faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari**
(2024- yil uchun)



**Mehmonxona va shunga oxshash joylashtirish vositalari
faoliyati ko'rsatkichlarini hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2024-yil uchun)

	<i>Mehmonxona va shunga oxshash joylashtirish vositalarining obyektlari soni (birlik)</i>	<i>Joylashtirilgan shaxslar soni (kishi)</i>	<i>Nomerlar (xonalar) soni (birlik)</i>	<i>Joylar soni (birlik)</i>
Samarqand viloyati	361	428 451	6 603	13 827
Samarqand sh.	301	339 675	4 862	10 310
Kattaqo'rg'on sh.	5	1 682	65	127
<i>Tumanlar:</i>				
Oqdaryo	7	10	19	19
Bulung'ur	-	-	-	-
Jomboy	-	-	-	-
Ishtixon	-	-	-	-
Kattaqo'rg'on	3	1 334	40	97
Qo'shrabot	2	155	15	40
Narpay	2	1 728	15	33
Nurobod	8	3 305	98	266
Payariq	7	14	105	163
Pastdarg'om	-	-	-	-
Paxtachi	25	79 971	1 374	2 752

Samarqand	-	-	-	-
Toyloq	1	577	10	20
Urgut	-	-	-	-

IV. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining faoliyati

2024-yilda Samarqand viloyatida **40 ta** ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining obyektlari faoliyat yuritib, ularda **1 139 ta** nomer (xona)lar va **2 941 ta** joylar mavjud bolgan. Hisobot davrida ushbu vositalarga **31,7 ming kishi** joylashtirilgan. 2023-yilga nisbatan ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining obyektlari soni **3 taga**, ya'ni **7,5 % ga** oshgan, nomer fondi esa **81 taga** (**7,2 % ga**), joylar soni **236 taga** (**8,1 % ga**), joylashtirilgan shaxslar soni **2 ming kishiga**, ya'ni **6,5 % ga** oshgan.


Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari faoliyati korsatkichlarini hududlar kesimida taqsimlanishi (2024-yil uchun)

	<i>Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining obyektlari soni (birlik)</i>	<i>Joylashtirilgan shaxslar soni (kishi)</i>	<i>Nomerlar (xonalar) soni (birlik)</i>	<i>Joylar soni (birlik)</i>
Samarqand viloyati	40	31 716	1 139	2 941
Samarqand sh.	5	3 153	82	360
Kattaqo'rg'on sh.	1	3 324	45	125
<i>Tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1	3 280	79	180
Bulung'ur	-	-	-	-
Jomboy	-	-	-	-
Ishtixon	-	-	-	-
Kattaqo'rg'on	-	-	-	-
Qo'shrabot	-	-	-	-
Narpay	-	-	-	-
Nurobod	28	21 188	837	2069
Payariq	-	-	-	-
Pastdarg'om	-	-	-	-
Paxtachi	1	455	10	15
Samarqand	2	93	43	90
Toyloq	1	0	2	2
Urgut	1	223	41	100

V. Individual va boshqa joylashtirish vositalarining faoliyati

2024-yilda Samarqand viloyatida **34 ta** individual va boshqa joylashtirish vositalarining obyektlari faoliyat yuritib, ularda **187 ta** nomer (xona)lar va **460 ta** joylar mavjud bolgan.

Individual va boshqa joylashtirish vositalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
(tegishli yil uchun)



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Jamoaviy joylashtirish vositalarining obyektlari soni](#)

[Jamoaviy joylashtirish vositalaridagi joylar soni](#)

[Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining obyektlari soni](#)

[Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalaridagi joylar soni](#)

[Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslar soni](#)

[Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining obyektlari soni](#)

**VI. Turizm va dam olishni rivojlanishining ko'rsatkichlariga doir uslubiy
tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar (TSXT – 2008)ga muvofiq, "turizm" tushunchasi tashrif buyuruvchilar faoliyatiga mansubdir.

Tashrif buyuruvchi sayohatchi tushunchasining quyi toifasi, turizm esa sayohat tushunchasining quyi toifasi hisoblanadi. Turistik safarni amalga oshirayotgan sayohatchi tashrif buyuruvchi deb ataladi.

Kiruvchi turistik safar – tashrif buyuruvchining mamlakatga kirib kelgan paytidan boshlab, mamlakatdan chiqib ketgunga qadar amalga oshirgan sayohati.

Chiquvchi turistik safar – tashrif buyuruvchining o'z doimiy yashash mamlakatidan chiqib ketish paytidan boshlab, unga qaytib kelgunga qadar amalga oshirgan sayohati.

Jamoaviy joylashtirish vositasi (YUNVTO terminologiyasiga muvofiq) sayyohlarga doimiy yoki vaqt-vaqti bilan tunab qolish uchun xona yoki boshqa binolarda joylashish imkoniyatini taqdim etadigan har qanday obyektni anglatadi, ammo undagi nomer (xona)lar soni har bir davlat tomonidan mustaqil ravishda belgilangan minimal darajadan ortiq bolishi kerak. Shu bilan birga, jamoaviy joylashtirish vositasidagi barcha nomer (xona)lar yagona boshqaruvga boysunishi (xatto foyda olish maqsad qilinmagan bolsa ham), korsatiladigan xizmatlar va mavjud jihozlarga muvofiq toifa va sinflarga ajratilgan bolishi kerak.

Jamoaviy joylashtirish vositalariga **mehmonxona va shunga oxshash joylashtirish vositalari** (mehmonxonalar, motellar, xostellar va mehmonxona turidagi boshqa tashkilotlar), **ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari** (sanatoriya-kurort tashkilotlari, soglomlashtirish tashkilotlari, dam olish uylari, pansionatlar, kempinglar, dam olish bazalari, turistik bazalar va boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari), **individual va boshqa joylashtirish vositalari** (mehmon uylari, dala hovlilari, otov lagerlari va individual joylashtirish vositalarining boshqa turlari).

Nomer fondi – joylashtirish vositasidagi umumiy nomer (xona)lar soni (ya'ni yashash uchun moljallangan turar joy xonalari). Vaqtincha yashash uchun zarur bolgan mebel, jihoz va inventarlar bilan jihozlangan bir yoki bir nechta turar joy xonalari nomer (xona) deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olishni rivojlantirishga oid statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

➤ Turistik oqimlar haqidagi ma'muriy ma'lumotlar (**chet elga ketgan fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar** O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat personallashtirish agentligi tomonidan, **O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolari to'g'risidagi ma'lumotlar** esa O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati chegara qo'shinlari tomonidan taqdim etiladi). Ushbu ma'lumotlar safar maqsadlari hamda tashrif buyuruvchilarning doimiy yashash mamlakatlari boyicha taqsimotni o'z ichiga oladi va har oyda Milliy statistika qo'mitasiga taqdim etiladi;

➤ Yillik statistika hisobotlari 1 turizm shakli "Tashrif buyuruvchilarga xizmat korsatish va joylashtirish to'g'risidagi hisobot" va 1 kb (tur) (1 kb shakliga ilova) "Tashrif buyuruvchilarga xizmat korsatish va joylashtirish to'g'risidagi mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti". Ushbu hisobotlarni sayyohlik-ekskursiya va joylashtirish (jamoaviy joylashtirish vositalari) xizmatlarini korsatuvchi yuridik shaxslar, zarur holatlarda ularning alohida bolinmalari taqdim etadilar. Tashrif buyuruvchilarga xizmat korsatish va joylashtirish to'g'risidagi statistika hisobotlarida turistik firma va tashkilotlar (xodimlar, sotilgan sayyohlik yollanmalar va xizmat korsatilgan shaxslar soni haqida ma'lumotlar) hamda jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati (nomer fondi, joylashtirilgan shaxslar va tunab qolish holatlari soni), shuningdek turizm va dam olish sohasini tavsiflovchi boshqa korsatkichlar aks ettiriladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi.

Turizm sohasidagi statistik ma'lumotlar turistik sohaning holatini baholashda, davlat siyosatini shakllantirishda va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, shuningdek, turistik oqimlarni monitoring qilish hamda tahlil etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ma'lumotlar davlat organlari, biznes hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarga mamlakatda turizmni rivojlantirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Foydali havolalar:

[O'zbekiston Respublikasining Turizm to'g'risidagi Qonuni \(ORQ-549-son\)](#)

[TSXT – 2008](#)

[Turizm statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining tashqi sektori statistikasi shakllantirilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori \(263-son\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni \(PF-87-son\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
*Aholi turmush darajasi va Ijtimoiy
soha statistikasi bo'limi*

Manzil: *Samarkand shahar U. Tursunov
ko'chasi 82 uy*
El. manzil: *info@samstat.uz*
Tel.: *66-235-33-16*

